

SHARQ TILLARIDA YOZILGAN MANBALARNING TARQALISHI GEOGRAFIYASI.

*O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi
Magistratura bitiruvchisi Ulkanazarova Nafisa*

KIRISH:

Sharq tillarida yozilgan manbalar dunyo madaniyati va tarixida muhim o'rinni tutadi. Bu tillar asosan O'rta Sharq, Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Hindiston yarim oroli va Shimoliy Afrika hududlarida keng tarqalgan bo'lib, ilm-fan, adabiyot, din va davlat boshqaruvi sohalarida boy madaniy meros yaratgan. Ushbu tillar nafaqat mazkur hududlarda, balki boshqa mintaqalarda ham keng o'qilib, tarjima qilinib, o'rganilgan. Shu sababli, ushbu manbalarning tarqalishi nafaqat Sharq mamlakatlari doirasida, balki butun dunyo miqyosida keng ko'lamli geografiyaga ega.

NAZARIY ASOS:

Sharq tillarida yozilgan manbalarning asosiy geografik markazlari O'rta Sharq va Fors hududi, Markaziy Osiyo, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Hindiston misolida ko'rib chiqamiz.

O'rta Sharq hududi, xususan, arab va fors tillarida yozilgan manbalar bilan dunyo tarixida katta iz qoldirgan. Arab xalifaligi davrida, xususan, Bag'dod, Damashq va Qohira kabi shaharlarda ilmiy va madaniy markazlar shakllangan. "Bayt ul-Hikma" (Bilimlar uyi) singari akademik markazlarda yunon, hind va fors tillaridagi ilmiy asarlar arab tiliga tarjima qilinib, bu manbalar G'arbga yetkazilgan. Ibn Sino, al-Farobi va al-Beruniy kabi buyuk mutafakkirlar arab va fors tillarida ilmiy asarlar yaratib, falsafa, tibbiyat, matematika, astronomiya va boshqa sohalarda katta yutuqlarga erishganlar. Fors tili, ayniqsa, adabiyotda o'zining boy merosi bilan mashhur bo'lgan. Fors shoirlari, jumladan, Jaloliddin Rumi, Sa'diy, Hofiz va Alisher Navoiy kabi ijodkorlarning asarlari xalqaro miqyosda keng tarqalgan. Ular nafaqat forsiy dunyoda, balki butun Sharq va hatto G'arbda ham katta obro'ga ega bo'lgan. Shuningdek, bu tillar davlat boshqaruvi va huquqiy hujjatlar tili sifatida ham foydalilanilgan.

Markaziy Osiyo hududi, xususan, Buxoro, Samarcand, Xiva, Toshkent va boshqa shaharlar Sharq ilm-fani va madaniyati markazlaridan biri bo'lgan. Ushbu hududda yashagan olimlar arab va fors tillarida ilmiy asarlar yaratib, Sharq va G'arb ilm-faniga katta hissa qo'shganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va



Ulug'bek kabi allomalar matematika, astronomiya, tibbiyot va geografiya sohalarida ulkan yutuqlarga erishganlar.

Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda tashkil etilgan madrasalar va kutubxonalar Sharq olimlari uchun bilim manbai bo'lgan. Ayniqsa, Temuriylar davrida bu hudud ilmiy va madaniy markaz sifatida yanada rivojlangan va ular arab va fors tillarida yaratilgan asarlarning tarqalishida muhim rol o'ynagan.

Hindiston va Janubi-Shaqiy Osiyo mintaqalarida arab va fors tillarining o'rni katta bo'lgan. Ayniqsa, Mo'g'ullar imperiyasi davrida fors tili davlat boshqaruvi tili sifatida ishlatilgan va bu hududda ko'plab huquqiy, siyosiy va adabiy asarlar yaratilgan. Fors tilida yozilgan hujjatlar va tarixiy manbalar Hindiston va qo'shni hududlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, islam dini Hindiston va Janubi-Shaqiy Osiyo mamlakatlariga kirib kelganidan so'ng, arab tilida yozilgan diniy asarlar bu hududlarda keng tarqalgan. Bu tillar mahalliy tillarga tarjima qilinib, diniy ta'lilotlar, tafsirlar va hadislari o'qitilishi uchun asosiy manba bo'lgan.

NATIJALAR:

Sharq tillarida yozilgan manbalar asrlar davomida nafaqat Sharq mamlakatlari doirasida, balki G'arb dunyosida ham o'rganilgan va tarqalgan. Sharqning boy ilmiy va adabiy merosi Yevropa, Rossiya va boshqa hududlarga tarjima qilinib, ilm-fan, falsafa, din va san'at sohalarida katta ta'sir ko'rsatgan. Quyida Sharq manbalarining dunyo bo'y lab qanday tarqalganligi haqida to'liq ma'lumot beriladi.

Sharq manbalarining Yevropa bo'y lab tarqalishi O'rta asrlarda boshlanib, ayniqsa, islam olimlari tomonidan yozilgan ilmiy asarlar katta e'tibor qozongan. Bu jarayon, xususan, bir necha asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshgan.

Tarjima harakati va Yevropaning ilmiy merosi O'rta asr Yevropasida, ayniqsa, 12-13-asrlarda Ispaniyada joylashgan Al-Andalus (musulmonlar boshqaruvidagi hudud) ilmiy markazlari orqali Sharq ilm-fani Yevropaga kirib kelgan. Toledo shahri tarjima markazi sifatida mashhur bo'lib, arab tilidagi ilmiy asarlar, xususan, falsafa, astronomiya, matematika, tibbiyot va geografiya sohalaridagi asarlar lotin tiliga tarjima qilingan. Ibn Sino, Ibn Rushd, Al-Xorazmiy va Al-Battaniy kabi olimlarning asarlari G'arbda katta ta'sir o'tkazgan va Yevropa Uyg'onish davriga zamin yaratgan.

Sharq manbalarining Rossiya va Markaziy Osiyo bo'y lab tarqalishi. Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet davrida Sharq manbalarini o'rganish va nashr etish bo'yicha sezilarli harakatlar amalga oshirildi. Xususan, XIX asrda Rossiya olimlari



Markaziy Osiyo va Kavkazga ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirib, bu hududlarda joylashgan qo'lyozma manbalarni yig'ish va tahlil qilishga katta e'tibor berishdi.

Rossiya Sharqshunosligi maktabida sharq tillari va madaniyatini o'rganish Rossiya akademik doiralarida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida katta rivojlangan. Sharq tillari, jumladan, arab, fors va turk tillaridagi diniy va ilmiy manbalarni o'rganish bo'yicha ilmiy markazlar tashkil etilgan. Peterburg va Moskva kabi shaharlarda Sharqshunoslik institatlari ochilgan va ular orqali Sharq madaniyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Global miqyosda Sharq manbalarining tarqalishi. Bugungi kunda Sharq manbalari nafaqat Yevropa va Rossiyada, balki aqsh, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarda ham o'rganilmoqda. Sharq tillaridagi qo'lyozmalar, qadimgi matnlar va adabiy asarlar turli universitetlar va ilmiy markazlarda keng tadqiq qilinmoqda.

Sharq manbalari va universitetlar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bugungi global ilmiy hamjamiyatda Sharqshunoslik yo'nalishi muhim ilmiy sohaga aylangan. Ko'plab nufuzli universitetlarda arab, fors va turk tillarini o'rganish bo'yicha fakultetlar faoliyat yuritadi. Sharq tillaridagi asarlarni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda va ularning ko'plari zamonaviy tillarga tarjima qilinib, dunyo ilm-faniga xizmat qilmoqda. Masalan, aqsh va Yevropa universitetlarida Sharq tillaridagi diniy va ilmiy qo'lyozmalarni o'rganish bo'yicha maxsus dasturlar mavjud.

XULOSA:

Sharq tillarida yozilgan manbalar dunyo ilm-fani va madaniyatida muhim o'rinn tutadi. Arab, fors va turkiy tillarida yaratilgan asarlar nafaqat Sharqning o'zida, balki Yevropa, Rossiya va boshqa hududlarda ham keng tarqalgan va o'rganilgan. O'rta asrlarda Yevropada arab ilm-fani va falsafasi tarjimalari Uyg'onish davriga zamin yaratgan bo'lsa, Rossiya va Markaziy Osiyoda Sharqshunoslik ilmiy maktabalarining shakllanishi Sharq madaniy merosini yanada chuqur o'rganishga xizmat qilgan. Bugungi kunda Sharq tillaridagi qo'lyozmalar va ilmiy asarlar global miqyosda, jumladan, aqsh va Yevropa universitetlarida ham keng o'rganilmoqda. Raqamli texnologiyalar orqali Sharq manbalarini saqlash va ommaga taqdim etish ishlari amalga oshirilmoqda, bu esa ularning kelajak avlodlarga yetib borishiga imkon beradi. Sharq madaniyati va ilmiy merosi dunyo tamaddunining ajralmas qismi bo'lib qoladi va uning o'rganilishi davom etadi. Sharq manbalarining tarixi ularning nafaqat ilmiy, balki madaniy va falsafiy ahamiyatini ham ko'rsatadi. Bu meros o'zining boyligi bilan zamonaviy ilmiy hamjamiyat uchun bebaho resursdir.

